

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

„TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH INSTITUTI“ MILLIY TADQIQOTLAR UNIVERSITETI

YER RESURSLARINI BOSHQARISH VA KADASTR FAKULTETI

5311300-KADASTR (HUDUDLAR DAVLAT KADASTRI) BAKALAVR TA’LIM
YO’NALISHI

DAVLAT KADASTRLARI KAFEDRASI GIDROTEXNIKA INSHOOTLARI
DAVLAT KADASTRI FANIDAN



TAQDIMOTI

MAVZU: **GIDROTEXNIKA INSHOOTLARI DAVLAT KADASTRINI
YURITISH ISHLARINI AVTOMATLASHTIRISH.**



KATTA O‘QI TUVCHI, FALSAFA DOKTORI

ASHUROV ABDULLA.

REJA:

1. Hidrotexnika inshootlari davlat kadastrini yuritish.
2. Hidrotexnika inshootlari davlat kadastrini yuritish tartibi.
3. Hidrotexnika inshootlari davlat kadastri mazmuni
 4. O'zi bu qanday kadastr?
 5. Xulosa

Gidrotexnika inshootlarining kadastrini yuritish

I, II, III sinfga mansub va davlat mulki bo`lgan, shuningdek, respublika, mintaqa, suv xo`jaligi va Energetika tizimiga kiruvchi xavf darajasi yuqori bo`lgan gidrotexnika inshootlarining kadastri "Davsuvxo`jaliknazorat" davlat inspeksiyasi tomonidan, III sinfdan past bo`lgan boshqa gidrotexnika inshootlari bo`yicha - inshootlarning mansubligiga qarab O`zbekiston Respublikasi Suv xo`jaligi vazirligi, "Issiqlik Elektr stansiyalari" AJ, "O`zbekgidroEnergo" AJ va boshqa tashkilotlar tomonidan yuritiladi. Gidrotexnika inshootlari kadastrini yuritish yuklangan organlar gidrotexnika inshootlarining texnik holati va xavfsizligi ustidan nazorat (monitoring)ni ta'minlaydilar.




Gidrotexnika inshootlari kadastr ma'lumotlarini yangilashda inshootning tavsifnomasiga va texnik holatiga ta'sir qiluvchi rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash va boshqa omillar natijasida ro'y bergan o'zgarishlar aniqlanadi va ro'yxatdan o'tkaziladi. Inshootlar egalari bir oy muddatda gidrotexnika inshootlari kadastrini yuritish yuklangan organlarga ko'rsatib o'tilgan o'zgarishlar haqida axborot taqdim etishga majburdirlar.



G idrotexnika tushunchasi.

Maxsus inshootlar, jihozlar va qurilmalar yordamida suv resurslaridan xalq xo‘jaligi ehtiyojlarida foydalanish va suvning zararli ta‘sirilariga qarshi kurashishni o‘rganish bilan shug‘ullanuvchi fan va texnikaning tarmog‘i gidrotexnika deb ataladi.

Bevosita suv xo‘jaligi tadbirlarini amalga oshiradigan muhandislik inshootlari gidrotexnikaviy yoki gidrotexnika inshootlari deb ataladi. Gidrotexnika inshootlarining vazifasi suv sarfini va sathini rostlash, uni ma‘lum sifatta va istalgan vaqtda kerakli miqdorda olib, zarur joylarga (ekin maydonlari, gidroelektr stansiyalar va hokazolarga) yetkazib berishdan iborat.



Gidrotexnika inshootlarining kadastrini yuritish TARTIBI

O‘zbekiston Respublikasi Gidrotexnika inshootlarining kadastri “Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga muvofiq inshootlarning texnik holatini hisobga olish va baholash, ularning bexatar ishlashini ta‘minlash maqsadida yuritiladi. Gidrotexnika inshootlari kadastri inshootning tabiiy shart-sharoitlari, joylashgan o‘rni, texnik, sifat va miqdor tavsifnomalari, xizmat qilish muddati, egasi to‘g‘risidagi va boshqa ma‘lumotlarni tashkil etuvchi ma‘lumotlar tizimi va hujjatlardan iborat bo‘ladi. Davlat mulki bo‘lgan gidrotexnika inshootlari, shuningdek korxonalarining respublika va mintaqalar suv xo‘jaligi va energetika tizimiga kiruvchi gidrotexnika inshootlari Kadastr obyekti hisoblanadi. Gidrotexnika inshootlari kadastri inshootlarning texnik holatini har tomonlama o‘rganish va baholash, sifat va miqdor tavsifnomalarini va foydalanish darajasini hisobga olish maqsadida yuritiladi.

GIDROTEXNIKA INSHOOTLARI

KADASTRINING MAZMUNI

Gidrotexnika inshootlari kadastrida har bir inshootga kadastr raqami bergan holda inshootni maxsus reestrda ro`yxatdan o`tkazish, turkumlash, sifat va miqdorga oid tavsifnomalarni hisobga olish hamda inshoot bo`yicha ma'lumotlarni tegishli shakllarga kiritish, saqlash, yangilash va axborotlarni foydalanish uchun berish nazarda tutiladi.

Gidrotexnika inshootlari kadastriga inshoot bo`yicha umumiy ma'lumotlar, gidrologiya, geologiya, gidrogeologiya, litologiya shart-sharoitlari tavsifnomasi, inshootlar tarkibi, suv xo`jaligi, suv-energetika, texnik-iqtisodiy ko`rsatkichlar, qidiruvlar, naturada kuzatishlar, konstruktiv chizmalar, sxemalar, grafiklar ilova qilingan holda inshoot holatini belgilovchi mavjud defektlar kiritiladi. Gidrotexnika inshootlari kadastrining mazmun bo`yicha aniq gidrotexnika inshootining (to`g`onlar (plotinalar), gidroelektr stansiyalar binolari,

suv tashlash, suv bo`shatish, suv o`tkazish va suv chiqarish inshootlari, tunnellar, kanallar, nasos stansiyalari, suv omborlari qirg`oqlarini, daryolar va kanallar o`zanlarining qirg`oqlari va tubini toshqin hamda yemirilishlardan muhofaza qilish uchun mo`ljallangan inshootlar, sanoat va qishloq xo`jaligi tashkilotlarining suyuq chiqindilar saqlanadigan joylarini o`rab turuvchi inshootlar (ko`tarmalar)), muhofaza zonalari turiga nisbatan qo`llaniladigan shakllari O`zbekiston Respublikasi Suv xo`jaligi vazirligi, "Issiqlik elektr stansiyalari" AJ, "O`zbekgidroenergo" AJ bilan kelishgan holda "Davsuvxo`jaliknazorat" davlat inspeksiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

GIDROTEXNIKA INSHOOTLARI DAVLAT KADASTRI O'ZI QANDAY KADASTR.

- O‘zbekiston Respublikasi Hidrotexnika inshootlarining kadastri “Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga muvofiq inshootlarning texnik holatini hisobga olish va baholash, ularning bexatar ishlashini ta‘minlash maqsadida yuritiladi.
- Davlat mulki bo‘lgan gidrotexnika inshootlari, shuningdek korxonalarining respublika va mintaqalar suv xo‘jaligi va energetika tizimiga kiruvchi gidrotexnika inshootlari Kadastr obyekti hisoblanadi.

Gidrotexnika inshootlari
kadastru Suv xo'jaligi
vazirligi hamda
“Davsuvxo'jaliknazorat”
inspeksiya tashkilotidan
yuritiladi.

(2019 yil holatiga)


Jami obyektlar soni: 22
207 ta

Shundan Davlat
kadastrlari yagona
tizimiga (DKYT)


kiritilganlar soni: 22 207
tani tashkil etadi.




Маълумотларни ишлаб чиқиш, туркумлаш, сақлаш, янгилаш ва объект ҳақида ахборот тақдим этиш технологиясини такомиллаштириш гидротехника иншоотлари кадастрининг **асосий вазифаси** ҳисобланади.



Гидротехника иншоотларининг (асосан гидроузеллар) сув чиқариб бериш (узатиш) имкониятига кўра классларга бўлиниши



Тўғонларнинг баландилиги бўйича классларга бўлиниши



XULOSA

GIDRAVLIKA INSHOOTLARI DEGANDA FOYDALI FOYDALANISHGA IMKON BERADIGAN YOKI ORTIQCHA SUVNING ZARARLI TA'SIRINI OLDINI OLADIGAN TIZIM TUSHUNILADI. MUHIT. BARCHA ZAMONAVIY SUV HAVZALARI, MELIORATSIYA) "GIDRAVLIK INSHOOTLAR" DEB ATALADI. O'RNATISH VA ISHLATISH XUSUSIYATLARIGA QARAB ULARNING TURLARI VA TASNIFI QUYIDAGILARDAN IBORAT: DENGIZ, KO'L, DARYO YOKI SUV HAVZALARI;

YER OSTI YOKI ER OSTI;

SUV XO'JALIGI TOMONIDAN XIZMAT KO'RSATILADI;

TURLI SOHALARDA QO'LLANILADI.

E'tiboringiz uchun
raxmat!!!